O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

O'QUV ISHLARI DEKANATI
TOMONIDAN RO'YXATGA OLINDI
T/R: 721/б
«31» 05 2024 y.

"TASDIQLAYMAN"
_______ B.A.Tulaganov
(OTM rektori)
2024-yil «31» 05

Ro'yxatga olindi: ____________
2024-yil «____» ____________

# QURILISH IQTISODIYOTI

## O'QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** **400 000** – Biznes, boshqaruv va huquq
**Ta'lim sohasi:** **410000** – Biznes va boshqaruv
**Ta'lim yo'nalishlari:** **60411200** – Menejment (qurilish)

**Toshkent – 2024 y.**

| Fan/modul kodi | O'quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| QI1604 | 2024-2025 y | 6 | 4 | |
| **Fan/modul turi** | **Ta'lim tili** | | **Haftadagi dars soatlari** | |
| Majburiy | O'zbek, rus | | 4 | |

| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| | **Qurilish iqtisodiyoti** | 60 | 60 | 120 |

**2.**

**I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda bozor iqtisodiyoti sharoitida qurilish iqtisodiyotini davlat investitsiya siyosati va qurilishda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish vazifalari bilan bog'lagan holda mutaxassislik profiliga mos bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir.

Fanni vazifasi – qurilish tarmog'ini milliy iqtisodiyot va jamiyat ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishdagi tutgan o'rnini yoritish, qurilishni boshqarishning zamonaviy tizimini va investitsion-qurilish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini o'rganish, investitsiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha iqtisodiy hisoblar olib borish uslublarini egallash; qurilish industriyasi resurs potensialini o'rganish, qurilishda bahoni va uning foyda, rentabellik va qurilish ishlab chiqarishining boshqa tomonlariga ta'sirini o'rganish.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. "Qurilish iqtisodiyoti" fanining predmeti, maqsadi, mazmuni va vazifalari.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh. Mirziyoyevning mamlakatimizni 2020 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2021 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmon asosida e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasidan kelib chiqqan holda fanning vazifalari.

Qurilish sohasida iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlari va muammolarini mukammal bilishlarida, shuningdek qurilish ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya va divesifikatsiyalash, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash, sohada puxta investitsiya siyosatini yurgizish va chet el investitsiyalarini yanada ko'proq jalb qilish kabi masalalarda chuqur bilimga ega bo'lishlarida talabalarning mazkur fandan samararli foydalanishlari hamda ijodiy yondoshuvlari qurilish iqtisodiyoti fanining oldida turgan vazifalardan biridir. Fanning predmeti, ob'ekti, maqsadi, mazmuni, nazariy va amaliy vazifalari, uning boshqa ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligi..

**2-mavzu. Qurilish - milliy iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida**

Milliy iqtisodiyotni tovar ishlab chiqarishga yo'naltirishda qurilishning tutgan o'rni va ahamiyati. Milliy iqtisodiyotning mustaqil tarmog'i sifatida qurilishning shakllanishi va texnik-iqtisodiy xususiyatlari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qurilish va harakatdagi korxonalarni rekonstruksiya qilishning hozirgi ahvoli va rivojlanish istiqbollari. Qurilish mahsuloti va uning iqtisodiy ahamiyati. Qurilish mahsulotining xususiyatlari. Qurilish mahsulotning tayyorlik bosqichlari. Qurilayotgan bino va inshootlar sifatini oshirish muammolari. Xorijiy mamlakatlardagi qurilishning ilg'or tajribalari va uning milliy qurilish amaliyotida qo'llanishi.

**3-mavzu. Kapitał qurilishda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari va muammolari**

Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy tamoyillari, ularning ahamiyati va kapital qurilish sohasida qo'llanishi. Qurilishda bozor mexanizmining asosiy elementlari. Qurilish mahsulotining "sotuvchi"si va "xaridori". Kapital qurilish sohasini isloh qilishning huquqiy va me'yoriy asosi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qurilish sohasida institutsional o'zgarishlar va infrastrukturani takomilashtirish. Qurilishda ob'ektlarni loyihalashtirish tizimini takomillashtirish. Qurilishda tender savdolari va bahoni belgilash tizimini takomillashtirish. Qurilishda kadrlar salohiyatini takomillashtirsh. Qurilishni kontrakt asosida tashkil etish va ob'ektlarni "kalitgacha" tayyorlik darajasida qurish, qurilishda shartnoma baholarini aniqlash tartibi. Qurilishda mulkchilik shakllari. Qurilish sohasida korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning o'ziga xos xususiyatlari va bu jarayonni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari. Qurilish iqtisodiyotini isloh etishda kichik va xususiy tadbirkorlikning o'rni va ahamiyati. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qurilishda tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va imkoniyatlari. Qurilishda tadbirkorlikni rivojlantirishda banklar, soliq va boshqa moliyaviy muassasalarning o'rni, ahamiyati.

**4-mavzu. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya siyosati. Investitsiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash uslublari**

Investitsiyalar, investitsiyaviy dasturlar va loyihalar. Zamonaviy investitsiya siyosatining o'ziga xos tomonlari va iqtisodiyotdagi tuzilmaviy o'zgarishlarga ularning ta'siri. Investitsiya siyosati va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi ustuvor yo'nalishlar. Investitsiyalarning tarkibi, tuzilmasi va zamonaviy yo'nalishlari. Investitsiyaviy dastur va loyihalarni amalga oshirish mexanizmlari. Investitsiyalar, investitsion faoliyat va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha qonun xujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari. Harakatdagi korxonalarni kengaytirish va rekonstruksiya qilishga yo'naltirilgan milliy va xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari. Turarjoy qurilishini rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan belgilangan chora-tadbirlar. Uy-joy kommunal sohasidagi islohotlar va ularning samaradorligi. Qishloqda uy-joy

qurilishi va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. Investitsiyalar iqtisodiy samaradorligini baholashning ilmiy, amaliy ahamiyati va tamoyillari. Investitsiyaviy taklif va investitsiya loyihasini miqyoslari (ko‘lami). Investitsiya loyihalarini tanlash va baholash tartibi. Investitsiyalarni tijorat, budjet va iqtisodiy samaradorligi. Inflyatsiyani baholash. Diskontlash stavkasi. Diskontlash koeffitsienti. Real investitsiyalar samaradorligini baholash tamoyillari. Sof keltirilgan (diskontlangan) daromad. Daromadlilik indeksi. Ichki daromadlilik normasi. Xarajatlarning qoplanish davri. Investitsiya loyihalari samaradorligining tavakkalchilik xavfi va noaniqliklarni hisobga olgan holda baholashning o‘ziga xos tomonlari. Investitsiya loyihasining ijtimoiy oqibatlarini baholash va o‘lchash. Investitsiya loyihalarini baholashda foydalaniladigan dasturlar paketi..

**5-mavzu. Qurilish ishlab chiqarishini tashkil etish va rejalashtirish**

Qurilish ishlab chiqarishi va uni tashkil etish. Qurilishni tashkil etish shakllari va uslublari. Qurilish ishlab chiqarishini tashkil etishda progressiv texnologiyalarni qo‘llash, nuqtaviy, kompleks blokli va potok uslublarida qurilishni tashkil etish. Qurilishda korxonalarning ishlab chiqarish tuzilmasi. Qurilishda korxonalarning tashkiliy tuzilmasi. Rejalashtirish - qurilish ishlab chiqarishini boshqarishdagi muhim bo‘g‘in sifatida. Qurilishda joriy va strategik rejalashtirish. Bozor munosabatlari sharoitida qurilishni rejalashtirishning xususiyatlari, tamoyillari va uslublari. Qurilish dasturlari va qarorlarini tayyorlashda bevosita yoki bilvosita ishtirok etuvchi davlat idoralari, korxonalar va xo‘jaliklarning tarkibi va xarakteristikalari. Kapital qurilish rejalarini ishlab chiqishda mahalliy idoralarning o‘rni. Pudrat tashkilotlari - qurilish rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda bosh “figura” sifatida. Qurilish ishlab chiqarishida to‘rsimon(setevoy) rejalashtirish va boshqarish. To‘rsimon grafik tushunchasi. Qurilish-montaj tashkilotining ishlab chiqarish rejasi, uning bo‘limlari va ko‘rsatkichlari. Ishlab chiqarish rejasining ishlab chiqish uslubi va uning zaxira imkoniyatlari bilan bog‘liqligi. Qurilish ishlab chiqarish rejalarida tadbirkorlik faoliyatini aks ettirilishi..

**6-mavzu. Qurilishda loyihalashtirish iqtisodiyoti va tashkil etilishi**

Qurilishni loyihlashtirishning maqsadi va vazifalari. Loyihalash bosqichlari va loyiha hujjatlarining mazmuni. Qurilish loyiha yechimlari iqtisodini baholash. Qurilish loyiha yechimlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari.

**7-mavzu. Investitsion-qurilish faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi**

Tartibga solish mohiyati va investitsion-qurilish faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish usullari. Qurilish majmuasi qurilish-montaj korxonalarining ishlab chiqarish quvvatini aniqlash va baholash. Qurilish majmuasi korxonalari faoliyatini litsenziyalash. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qurilishda monopoliyaga qarshi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi..

**8-mavzu. Qurilish industriyasining ishlab chiqarish va resurs salohiyati va undan oqilona foydalanish yo‘llari**

Qurilishning ishlab chiqarish salohiyati va resurslari, qurilish industriyasi korxona va tashkilotlari faoliyatidagi ularning ahamiyati va tarkibi. Ishlab chiqarish salohiyati va resurslarining farq qiluvchi xususiyatlari. Asosiy fondlar - qurilish tarmog‘i ishlab chiqarish va resurs salohiyatining muhim qismi sifatida. Asosiy fondlarning mohiyati, tarkibi va vazifalari. Asosiy fondlardan foydalanish ko‘rsatkichlari va uni baholash. Asosiy fondlarning qurilish industriyasi korxona va tashkilotlari ishlab chiqarish kuvvatlari bilan bog‘liqligi. Qurilish korxonalarining aylanma mablag‘lari va aylanma fondlari. Aylanma fondlar tizimi va tarkibi. Xususiy va qarz aylanma mablag‘lar. Aylanma mablag‘lardan foydalanish ko‘rsatkichlari. Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida qurilishning ishlab chiqarish va resurs salohiyatini shakllantirish va undan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari.

**9-mavzu. Qurilish korxonasi bozor iqtisodiyotining sub’ekti sifatida**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qurilish korxonalari shakllanishi va faoliyati xusussiyatlari. Qurilish ishlab chiqarishida konsentratsiya, ixtisoslashish, kooperatsiya va kombinatsiyalash. Xolding va moliya-sanoat guruhlari tarkibidagi qurilish tashkilotlari.Davlat va munitsipal unitar korxonalar. Qurilishda kichik korxonalar. Korxonalarning ichki va tashqi muhitlari.

**10-mavzu. Qurilishda mehnat resurslari va mehnat unumdorligi.**

Mehnat resurslari va mehnat unumdorligi mohiyati. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mehnat unumdorligini o‘sishi omillari va zaxiralari. Mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari va uni o‘lchash uslublari. Mehnat unumdorligini baholash. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mehnat bozorini tartibga solishda davlat aralashuvi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kapital qurilishda mehnat munosabatlari va kadrlar salohiyatini rivojlantirish xususiyatlari. Kapital qurilishning dinamik rivojlanishida kadrlar salohiyatining roli. Qurilishda mehnat bozorining rivojlanishi.

**11-mavzu.Qurilishda mehnat munosabatlari va kadrlar salohitini takomillashtirish muammolari**

Kapital qurilishda ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va uning vujudga kelish sabablari. Ishchi kuchi migratsiyasi. Qurilish sohasida kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlashning istiqbolli yo‘nalishlari va muammolar. Qurilishda kichik biznes va bandlik. Mehnatga haq to‘lash tizimi. Ish haqi shakllari va turlari. Qurilishda mehnatga haq to‘lash tizimini takomillashtirish yo‘llari. Qurilish korxonalarida ishchi xodimlarning mehnatini rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish. Mehnatga haq to‘lash fondining sarflanishida kasaba uyushmasining roli. Mehnat va jamoa shartnomalarining takomillashtirilishi

**12-mavzu. Qurilishni boshqarishning zamonaviy tizimi**

Tarmoq va milliy iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida

boshqarishning mazmuni, ahamiyati va tomoyillari. Qurilishda menejmentning mohiyati, maqsadi, vazifalari va tamoyillari. O‘zbekistonda qurilishni boshqarishdagi muhim organlar (idoralar). Kapital qurilishda xo‘jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari. Qurilish korxonalari va tashkilotlarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari va xorij tajribasi.. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari. Davlat ekspertizasi hududiy boshqarmasi. Hududiy arxitektura va qurilish bosh boshqarmasi. Kapital qurilishni boshqarish tizimida qurilish industriyasi korxona va tashkilotlarining o‘rni va roli. Qurilish industriyasi tashkilot va korxonalarining turlari. Bosh pudratchi, subpudratchi va buyurtmachi tashkilotlarning funksiyalari va o‘zaro aloqalari. Qurilish industriyasi korxonalari va pudratchi tashkilotlar faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari va imkoniyatlari.

**13-mavzu. Qurilish moddiy-texnikaviy bazasi va uni takomillashtirish yo‘nalishlari**

Qurilish majmuasining bozor munosabatlariga o‘tishi, tashkilot va korxonalarda moddiy-texnikaviy baza va uning hozirgi kundagi holati. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qurilish korxonalarida xo‘jalik yuritishning zamonaviy uslub va shakllari. Moddiy-texnika bazasining kapital qurilish rivojlanishidagi ahamiyati va roli. Qurilishning tarmoqlararo aloqalari. Qurilish moddiy-texnikaviy bazasini ilgarilab boruvchi rivojlanishining ahamiyati va istiqbollari. Qurilishda moddiy-texnika ta’minotini tashkil etish tizimida logistika. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qurilish industriyasi korxonalarining moddiy-texnika bazasi holati va uni takomillashtirish muammolari. Qurilish korxonalarida zamonaviy texnika va uskunalardan foydalanishni tashkil etishda ijara va lizing xizmatlarini joriy etish. Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonlarida mahalliylashtirish dasturinig amalga oshirilishi. Qurilish materiallari bozorining rivojlanishi.

**14-mavzu Qurilishda fan-texnika taraqqiyoti va uning iqtisodiy samaradorligi**

Fan-texnika taraqqiyoti - qurilish va jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida. Qurilishda fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari va mazmuni. Jamiyat fan-texnika taraqqiyotida qurilishning o‘rni va ta’siri. Qurilish ishlab chiqarishida fan-texnika taraqqiyotini ta’minlovchi tarmoqlar. Yangi qurilish materiallari, konstruksiyalar va ularning qurilish texnikasi taraqqiyotidagi o‘rni. Qurilishni zamonaviy mashina va mexanizmlar bilan jihozlash, fan-texnika taraqqiyotining omili va natijasi sifatida. Qurilish ishlab chiqarishini texnikaviy jihozlanganlik ko‘rsatkichlari. Qurilishda ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash, kompleks mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish va qo‘l mehnatini qisqartirish. Qurilishni mexanizatsiyalash, yangi texnika va texnologiyani yaratish sohasida xorij davlatlari tajribasi. Fan-texnika taraqqiyotining zamonaviy yutuqlaridan foydalanish sohasida qurilish-montaj tashkilotlarining faoliyati. Qurilishda yangi texnika va tenologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi, uning ko‘rsatkichlari va aniqlash uslublari..

**15-mavzu. Qurilishda narx shakllanishi va smeta ishi**

Qurilishda narxni shakllantirish asoslari. Qurilish va qurilish-montaj ishlarining smeta qiymati tuzilmasi. Smetaviy me’yorlash va smeta me’yorlari tizimi. Smeta hujjatlarini tuzish uslubi, smeta tarkibi va turlari. Qurilishda shartnomaviy narxlar. Qurilish mahsuloti narxi va qurilish-montaj ishlari qiymatini aniqlashga uslubiy yondashuvlar. Bajarilgan ishlar bo‘yicha hisob-kitoblar tartibi, loyiha-smeta hujjatlarini ekspertiza qilish va tasdiqlash.

**16-mavzu. Qurilish mahsulotining tannarxi, foyda va rentabellik**

Qurilish-montaj ishlari tannarxi tushunchasi va uning tarkibi. Qurilishda qiymatning paydo bo‘lish mexanizmi asosi. Smeta tannarxi. Rejadagi tannarx. Haqiqiy tannarx. Foyda va rentabellik, ularning o‘zaro aloqasi va o‘zaro bog‘liqligi. Qurilish-montaj tashkiloti daromadi. Foydani tashkil qiluvchi asosiy manbalar va omillar. Rentabellik-qurilish industriyasi korxonalari va qurilish-montaj tashkilotlari ishi samaradorligini umumlovchi ko‘rsatkich sifatida. Rejadagi rentabellik darajasi. Haqiqiy rentabellik. Qurilish montaj ishlari tannarxini pasaytirish yo‘llari.

**17-mavzu. Qurilish ishlab chiqarishini diversifikatsiyalash asoslari**

Diversifikatsiya mohiyati va uning turkumlanishi. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishning shartlari va mezonlari. Ishlab chiqarishni rejadan tashqari diversifikatsiya qilishning iqtisodiy asosi. Qurilish ishlab chiqarishida diversifikatsiyani tashkil etish va o‘tkazish. Qurilish ishlab chiqarishida ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyati tahlili samaradorligi. Marjinal tahlil asosida qurilish biznesida boshqaruv qarorlarini asoslash va qabul qilish.

**III. Amaliy mashg’ulotlari buyicha ko’rsatma va tavsiyalar.**

Amaliy mashg’ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu. “Qurilish iqtisodiyoti” fanining predmeti, maqsadi, mazmuni va vazifalari.

2-mavzu.Qurilish - milliy iqtisodiyotning muhim tarmog‘i sifatida

3-mavzu. Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlari va muammolari

4-mavzu. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya siyosati. Investitsiyalar iqtisodiy samaradorligini baholash uslublari

5-mavzu. Qurilish ishlab chiqarishini tashkil etish va rejalashtirish

6-mavzu. Qurilishda loyihalashtirish iqtisodiyoti va tashkil etilishi

7-mavzu. Investitsion-qurilish faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi

8-mavzu. Qurilish industriyasining ishlab chiqarish va resurs salohiyati va undan oqilona foydalanish yo‘llari

9-mavzu. Qurilish korxonasi bozor iqtisodiyotining sub’ekti sifatida

10-mavzu. Qurilishda mehnat resurslari va mehnat unumdorligi.

11-Qurilishda mehnat munosabatlari va kadrlar salohitini takomillashtirish

muammolari

12-mavzu. Qurilishni boshqarishning zamonaviy tizimi

13-mavzu. Qurilish moddiy-texnikaviy bazasi va uni takomillashtirish yo‘nalishlari

14-mavzu Qurilishda fan-texnika taraqqiyoti va uning iqtisodiy samaradorligi

15-mavzu. Qurilishda narx shakllanishi va smeta ishi

16-mavzu. Qurilish mahsulotining tannarxi, foyda va rentabellik

17-mavzu. Qurilish ishlab chiqarishini diversifikatsiyalash asoslari

Amaliy mashg’ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o’qituvchi tomonidan o’tkazilishi zarur.

Mashg’ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o’tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo’llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qurilishda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlari
2. Qurilishda shartnoma munosabatlari
3. Qurilish tashkiloti faoliyatini tahlil qilish
4. Qurilish maxsuloti narxini aniqlash usullari
5. Qurilish maxsulotining tannarxi
6. Qurilishda foyda turlari
7. Qurilishda strategik rejalashtirish
8. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash usullari
9. Qurilishda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish
10. Qurilish tashkilotida foyda va rentabellik
11. Investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqish va tasdiqlash
12. Qurilishda menejment xususiyatlari
13. Qurilish tashkiloti faoliyatining tahlili
14. Qurilish tashkiloti faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlarini hisoblash
15. Qurilishda smeta xujjatlarining tarkibi
16. Qurilish tashkiloti misolida asosiy fondlarni amortizatsiyasi va eskirishi
17. Qurilish tashkiloti faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari
18. Qurilishda tender savdolari
19. Qurilish industriyasi kadrlar potensiali va bozor munosabatlari sharoitida uni shakllantirish muammolari
20. Qurilish tashkilotining iqtisodiy faoliyatini baholash
21. Qurilishda aylanma mablag‘larni shakllantirish tartibi
22. Qurilishda biznes rejalashtirish
23. Qurilish ishlab chiqarishida istiqbolli qurilish materiallarini tadbiq etish va takomillashtirish yo‘nalishlari.
24. Qurilish korxonalari (tashkilotlari) moliyaviy barqarorligini ta’minlash yo‘llari
25. Qurilishda mehnat unumdorligini baholash
26. Qurilish tashkiloti faoliyatining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini hisoblash
27. Qurilish tashkilotida asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlatilishini samaradorligini baholash
28. Qurilish tashkiloti ishlab chiqarish xujalik faoliyatini rejalashtirish

Mustaqil o’zlashtiriladigan mavzular bo’yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. **V. Fan o’qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o’zlashtirish natijasida talaba:

Bilish va tushunish jihatidan talabalar quyidagi imkoniyatlarga ega bo’lishlari kerak:

- tarmoq va milliy iqtisodiyot rivojlanishning zamonaviy yo‘nalishlari va qonuniyatlari hamda ularni bozor munosabatiga o‘tkazish tamoyillarini;
- investitsiya loyihalari va ularning iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishdagi o‘rnini;
- investitsiya loyihalarini va qurilish ishlab chiqarishini amalga oshirishdagi ishtirokchilar va ularning majburiyatlarini;
- moddiy ishlab chiqarish sohasi sifatidagi qurilishning ixtisoslashuvi hamda uning ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish funksiyalari;
- qurilish kompleksi va uning tarkibiy tuzilishi;
- qurilish i qtisodiyotining boshqa tarmoqlar bilan aloqasi hamda ushbu aloqalarning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga ta’siri **haqida tasavvurga ega bo‘lishi;**
- qurilish industriyasi korxona va tashkilotlarining ishlab chiqarish quvvatlaridan hamda resurslardan oqilona foydalanishni tashkil etishni;
- kapital qurilish va iqtisodiyotni boshqarishning turli bosqichlarida investitsiya siyosatini amalga oshirish bo‘yicha qonuniy va me’yoriy hujjatlarni;
- qurilishni tashkil etish va qurilish tashkilotlarining bir maromda ishlashida loyiha-smeta ishining ahamiyatini;
- qurilish ob’ektlarining turli variantlari va investitsiya qo‘yilmalarini o‘zlashtirish bilan bog‘liq ishlarni tashkil etishni;
- qurilish va qurilish montaj ishlarini olib borish uslublarini;
- qurilishda tashkilotlarining samarali ishlarini davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash mexanizmlarini;
- qurilish industriyasi xodimlari salohiyatini shakllantirishning xususiyatlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- qurilish korxonalari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini boshqarish;
- qurilish korxonalarining tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish va ularni boshqarish tizimini shakllantirish;
- qurilish korxonlarining turli zaxiralarini izlash va ulardan foydalanish bo‘yicha vazifalarni yechish yo‘llarini;
- qurilishda xarajatlarni kamaytirish va qurilish ishlab chiqarishining rentabelligini oshirish yo‘llarini;
- kapital qo‘yilmalarni rejalashtirish va turli investitsion loyihalarni baholash hamda tahlil qilish to‘g‘risida amaliy ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.***

**4. VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma’ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo’lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

**5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to’la o’zlashtirish, tahlil natijalarini to’g’ri aks ettira olish, o’rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo’yicha yozma ishni topshirish.

**6.**


**Asosiy adabiyotlar**

1. Х.А. Абдукадырова, А.Н.Джабриев “Экономика строительства” учебное пособие, Complex Print, 2024 г. -248 стр.
2. Saidov.M.S, Ismailov A.M, Mirdjalilova D.Sh, Melikulov G’.A, Rasulov Sh.A, Qurilish iqtisodiyoti. darslik. – T.: “Sarvarprint” MChJ nashriyoti, 2024 y, 527 b.
3. Davletov I.X. Qurilish iqtisodiyoti. darslik. – T.: “Ijod-press” nashriyoti, 2019 y, 256 b.
4. К.С Ташмухамедова “Экономика строительства” учебник.- ТАСИ, Т.: 2019 г. -288 стр.
5. В.В.Акимов, А.Г.Герасимова, Т.Н.Макарова, В.Ф.Мерзлаков, К.А.Огай, Экономика отрасли (строительства) учебник. 2-е изд.. -Москва INFRA-M 2020 г, 300 стр.

**Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy majlisga navbatdagi Murojaatnoma ma’ruzasi. Toshkent, Xalq so‘zi 29.12.2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyovning "2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi F-4849-son Farmoyishi. 14.02.2017 y.
3. Grafova G.F., Guskov S.V. Ekonomicheskaya otsenka investitsiy: Uchebnoe posobie. – M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K°», 2008. – 183 s.
4. Yefimenko I.B., Plotnikov A.N. Ekonomika otrasli (stroitelstvo): ucheb. posob. – M.: Vuzovskiy uchebnik, 2009. – 359 s.
5. Laxmetkina N.I. - Investitsionnaya strategiya predpriyatiya: Uchebnoe posobie / N.I Laxmetkina; res. T.A Bashkatova. - [b.m.]: Knorus, 2017. - 232 s.
6. Xazanovich E.S Investitsionnaya strategiya: Uchebnoe posobie / E.S Xazanovich, A.V Moiseev; res. T.V Filatova. - [b. m.]: Knorus, 2017. - 272 s. - Bibliogr.: s. 270
7. Mixaylov A.Yu Organizatsiya stroitelstva. Stroygenplan: Uchebnoe posobie / A.Yu Mixaylov; res. A.B Valt. - [b. m.]: INFRA-Injeneriya, 2016. - 172 s. - Bibliogr.: s. 170
8. Chernyak V.Z. - Ekonomika i upravlenie na predpriyatii (Stroitelstvo): Uchebnik / V.Z Chernyak; res. A.Yu Yegorov. - [b.m.]: Knorus, 2019. - 796 s.
9. Baev I.A., Varlamova Z.N., Vasileva O.Yeyu i dr. Ekonomika predpriyatiya Uchebnik dlya vuzov. / 4-ye izd./ pod red V.M.Semenova-SPB.: Piter 2006-384 s.
10. Isakov M.Yu. Ekonomika kapitalnogo stroitelstva. Uchebnoe posobie. –T.: Izdatelstvo Literaturnogo fonda Soyuza pisateley Uzbekistana, 2004. -128 b.
11. Ekonomika stroitelstva: Uchebnik / pod obshey red. I.S.Stepanova.- 3-ye izd., dop. i pererab. - M.: Yurayt-Izdat, 2004. - 620s.
12. Fedonov A.I. - Osnovi stroitelnogo proizvodstva: Uchebnoe posobie / A.I Fedonov, R.A Fedonov; res. A.A Barbashin. - [b.m.]: KnoRus, 2019. - 316 s.
13. Isoqov M.Yu. Kapital qurilish iqtisodiyoti (ma’ruzalar matni) - T.: TDIU, 2006. - 219 b.

**Axborot manbaalari**

1. www.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasi hukumatining rasmiy sayti)
2. www.gkas.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi rasmiy sayti)
3. www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti)
4. www.stroyinfo.uz (Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlar va narxlarni shakllantirish Markazi sayti)


**7.** Fan dasturi Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2024 yil “31” 08 dagi 8 -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

**8. Fan/modul uchun ma’sular:**

K.S.Tashmuxamedova– TAQU “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

**9. Taqrizchilar:**

A.N.Djabriyev – TAQU “Iqtisodiyot” kafedrasi professori, iqtisod fanlari doktori.

A.J. Abdullayev – TDTU “Transport iqtisodiyoti” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD)